



ON THE EFFECTIVENESS OF THE SYSTEM FOR WORKING WITH YOUTH IN UZBEKISTAN

Kamoliddin Boborakhmatovich Mavlonov

Researcher

Karshi State Technical University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth policy, legal and regulatory documents, the role of youth in society, the system of working with youth, youth activities.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the effectiveness of the youth work system in the Republic of Uzbekistan. The article discusses the main directions of youth policy, legal and regulatory documents aimed at supporting young people socially, economically, and culturally, as well as opportunities created for their active participation in society. Additionally, the necessity of improving the youth work system and the measures required for its efficient operation are explored. The article is focused on examining the development of youth, supporting their activities, and the policies implemented in this regard.

O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMI SAMARADORLIGIGA OID

Kamoliddin Boboraxmatovich Mavlonov

Qarshi davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yoshlar siyosati, huquqiy-meyoriy hujjatlar, yoshlarning jamiyatdagi o'rni, yoshlar bilan ishlash tizimi, yoshlar faoliyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlar bilan ishlash tizimining samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishlari, yoshlarni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan qo'llab-quvvatlashga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar, shuningdek, yoshlarning jamiyatdagi faol ishtiroki uchun yaratilgan imkoniyatlar muhokama qilinadi. Shuningdek, yoshlar bilan ishlash tizimining

takomillashtirilishi zarurligi va uning samarali ishlashi uchun kerakli chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Maqola yoshlarni rivojlantirish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bu borada olib borilayotgan siyosatni o'rganishga qaratilgan.

ОБ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ РАБОТЫ С МОЛОДЕЖЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ

Камолиддин Боборахматович Мавлонов

Исследователь

Каршинского государственного технического университета

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодежная политика, правовые и нормативные документы, роль молодежи в обществе, система работы с молодежью, молодежные мероприятия.

Аннотация: В данной научной статье анализируется эффективность системы работы с молодежью в Республике Узбекистан. Статья рассматривает основные направления молодежной политики, правовые и нормативные документы, направленные на социальную, экономическую и культурную поддержку молодежи, а также возможности, созданные для активного участия молодежи в обществе. Кроме того, рассматривается необходимость совершенствования системы работы с молодежью и меры, необходимые для ее эффективного функционирования. Статья ориентирована на изучение развития молодежи, поддержку их деятельности и проводимой в этом направлении политики.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida yoshlar siyosati davlat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimiz demografik tarkibida yoshlar ulushi yuqori (60 foiz) bo'lganligi sababli, ularning bilim va salohiyatini to'g'ri yo'naltirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu boisdan ham hukumatimiz siyosatida yoshlar bilan ishlash yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilib qonunchilik asosidagi tizimli yondashuv, innovatsion mexanizmlar va yangi tashkiliy andazalar joriy qilish jadallik bilan amalga oshirilmoqda.

Jumladan, yoshlar siyosatiga yangicha yondashuv asosida tizim institutsional asoslari oxirgi o'n yillikda yanada jadallik bilan mustahkamlanib bormoqda. Bu yo'nalishdagi aosiyl amaliy ishlar

sifatida yoshlarga oid davlat siyosati tashkiliy-huquqiy jihatdan tubdan takomillashib, yangidan tashkil qilingan Yoshlar ishlari agentligi, yoshlar parlamenti hamda hududiy yoshlar kengashlari o'z faoliyatini samarali amalga oshirib kelayotganligini ko'rsatish mumkin. Mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyati natijasida mamlakatimizda barcha yo'nalishlarda yoshlar faolligi o'sib bormoqda. Shuningdek, "Yoshlar daftari" elektron platformasi orqali yoshlarni (14-30 yosh) ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va bandlik bilan bog'liq muammolarini aniqlash, ularning holatini tahlil qilish va qo'llab-quvvatlash borgan sari o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda.

Muhokama va natijalar. Yurtimizda yoshlar siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, har tomonlama rag'batlantirish va huquqiy manfaatlarini himoya qilish sohasida 2017-yil 5-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5106-sonli farmoni hamda O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyining qarori asosida yangi bosqichga o'tildi. Ushbu farmon va qarorlar doirasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi, shu bilan birga, 30-iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida belgilandi[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli farmoniga asosan, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti ta'sis etildi. Ushbu mukofotning ta'sis etilishi, buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lgan mardlik, qat'iyatlilik, fidoiylilik, vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan. Shuningdek, jamiyat hayotining turli sohalarida yuqori natijalarga erishgan, bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, shijoatli va fidoyi yigitlarni rag'batlantirish maqsadida 2017-yil 21-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3402-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror doirasida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti ta'sis etishning chora-tadbirlari belgilab olindi [2].

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida doimo faol ishtirok etgan, alohida o'rnak ko'rsatayotgan yosh oilalarga uzoq muddatga imtiyozli ipoteka kreditlari berish yo'li bilan ularning uy-joy hamda maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida 2017-yil 23-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 753-son "Mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashda qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [3].

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 28-dekabrda "Kelajak bunyodkori" medalini ta'sis etish to'g'risida"gi O'RQ-451-son qonuni qabul qilindi [4].

Yoshlar siyosatiga doir faol ishlar natijasida barcha bosqichlardagi ta'lim sifati va qamrovi oshirilmoqda, mamlakat miqyosida yoshlar bandligi masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ularga zamonaviy kasb-hunarlar o'qitilmoqda hamda yoshlar tadbirkorligi turli yo'nalishlarda

rivojlanmoqda. Shu bilan bir qatorda, yoshlarning turli yod g'oyalar ta'siriga tushib qolishi va ular o'rtasidagi jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, biznes faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan yoshlarni faol mehnatga jalb qilish, ularni kompleks shart-sharoitlar bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va kengaytirish, shuningdek, yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishida amalga oshiriladigan harakatlar strategiyasining bajarilishi uchun 2018-yil 27-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5466-sonli "Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risidagi farmoni qabul qilindi[5].

O'zbekistonda yoshlar siyosati yangi bosqichga ko'tarilgani milliy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Innovatsiyalar, ta'lim, tadbirkorlik va yoshlar ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash orqali ularning salohiyati to'liq ro'yobga chiqarilmoqda.

2019-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4433-sonli "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasining tashkiliy tuzilmasi va Vasiylik kengashining tarkibi, shuningdek, iste'dodli yoshlarni 2019-2020-yillarda "Yoshlar akademiyasi" faoliyatiga jalb etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi[6].

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlar masalasi markaziy o'rinni egallab kelyotganligini ko'rsatuvchi omil sifatida 2025-yil 10-sentabr kuni qabul qilingan "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-163-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmonini ko'rsatib o'tish mumkin [7].

Mazkur farmon yoshlar bilan ishlash tizimini, ayniqsa mahalla darajasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishga qaratilgan muhim siyosiy-huquqiy hujjat hisoblanib, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida keltirilgan rejalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan uchrashuvlar jarayonida mas'ullarga qo'ygan vazifalarning mantiqiy davomi bo'ldi. Uning asosida yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy va kasbiy rivojlanishi uchun mutlaqo yangi mexanizmlar joriy etilishi ko'zda tutilgan[8]. Farmonda belgilab berilgan vazifalar o'zida yoshlar siyosatidagi zamonaviy yondashuvlarni aks ettirib, mahallalarda yoshlar bilan ishlash borasida aniq chora-tadbirlarni belgilab beradi. PF-163-sonli Prezident Farmoni yoshlar siyosatidagi sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Mahalla darajasidagi tizimni tubdan isloh qilish, raqamlashtirish, yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish - mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Farmonning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki:

yoshlar bilan ishlashda individual yondashuv kuchaytirildi;

ta'lim - mahalla - davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlik tizimi yangicha shakllantirildi;

raqamli platforma orqali yoshlar siyosatida shaffof va analitik boshqaruvga o'tish mumkin bo'ldi;

har yili milliy ma'ruza e'lon qilinishi siyosat samaradorligini muntazam baholash imkonini yaratadi.

Mazkur farmon ijrosi natijasida yoshlarning ijtimoiy ahvoli yaxshilanib, ularning mehnat bozoriga kirib borishi, salbiy ta'sirlardan himoyalaniishi va jamiyatdagi faolligi sezilarli darajada oshishi kutilmoqda.

Xulosa. Yoshlar hayoti va ijodini ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixiy ma'lumotlar asosida yoritishda, yoshlarni jismoniy sog'lom turmush tarziga va sport faoliyatlariga keng jalb etish maqsadida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar amalda bajarilganligini ko'rsatadi. Viloyatda yoshlarni sportga jalb etishga oid qabul qilingan qonunlarning hayotga tatbiqi tarixiy ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 27-son, 607-modda.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2017-y., 07/17/3402/0285-son.
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2025-y., 06/25/163/0820-son.
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2017-y., 03/17/451/0473-son.
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.06.2018-y., 06/18/5466/1527-son.
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2019-y., 07/19/4433/3673-son.
7. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2025-y., 06/25/163/0820-son.
8. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.